

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH

Rayimov Shukurullo Karimovich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti,

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ANNOTATSIYA

Maqolada harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etishning ba'zi jihatlari, shuningdek, interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi to'g'risida mushohadali fikr - mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'qitish, milliy ta'lim-tarbiya, integratsiyalashgan interfaol mashg'ulot, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi, texnologik jarayon, texnologik ta'limni texnologiyalashtirish, mohiyat, mazmun, qiziqish, natija.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются некоторые аспекты организации и проведения занятий с использованием инновационных педагогических технологии, а также эффективность применения интерактивных методов обучения в военных образовательных учреждениях.

Ключевые слова и понятия: *технология, обучения, обучение и воспитания, интеграция интерактивных занятий, педагогическая технология, технология образования, технология обучения, технологический процесс, технологизация технологического образования, результат, содержания, значение.*

ABSTRACT

The article discusses some aspects of organizing and conducting classes using innovative teaching technologies, as well as the effectiveness of interactive teaching methods in military educational institutions.

Key words and concepts: *technology, teaching, education and training, integration of interactive classes, pedagogical technology, educational technology, teaching technology, technological process, technologization of technological education, result, content, meaning.*

Davlatimiz rahbarining har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan ma'ruza va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qaralib kelinmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas". Binobarin Prezidentimiz tomonidan 2020-yil yil 6-noyabrdida imzolangan "O'zbekistonning yangi tarqqaqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonda ham "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektuaal va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun zarur ko'nikma va bilimlar bo'lishini shakllantirish" mazkur sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [1]. Bu masala boshqa yo'nalishlar qatori harbiy ta'limda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa o'qitish jarayonida ta'lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo'llash orqali mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish talab qilinadi. Shu sababli bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy dolzarb masala – ta'lim usullari va shakllarini yaxshi egallagan, ularni amalda qiynalmay qo'llay oladigan malakali ofitser-o'qituvchilarni tayyorlashdan iborat bo'lib qolmoqda. Chunki kursantlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni mutaxassislikka yo'naltirishda ofitser-o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati alohida ahamiyatga egadir. Binobarin ofitser-o'qituvchi olib boradigan ochiq muloqot tarzidagi mashg'ulot jarayonini boshqa hech narsa bosa olmaydi. Shu sababli ham malakali yetuk ofitser-o'qituvchi kadrlar tayyorlash uchun, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, "Texnologiya" – yunoncha "tehne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at va "logos" – so'z, ta'limot, fan ma'nosini anglatadi. Bu atama dastlab ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda fanda 1870-yillardan e'tiboran ishlab chiqarish sohasida qo'llanila boshlagan bo'lib, unga materiallarga, yarim tayyor mahsulotlarga ishlov berish, ularning tarkibini, xususiyatlarini, ko'rinishini, tayyorlanishini, qo'llanish sohasini o'zgartirish yo'llari haqidagi fan sifatida qaralgan [2].

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi nimani anglatadi?

“Pedagogik texnologiya” pedagogik nazariya va amaliyotda shaxsni shakllantiruvchi, uning sifatlari va xususiyatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanuvchi tarbiyaviy jarayon va o‘rgatuvchi hamda didaktik texnologiyalarni amalga oshiruvchi ta’lim jarayoni hisoblanadi.

Milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun yangi tipdagi o‘quv reja, o‘quv dasturi va ta’lim standartlari yaratildi. Lekin ularni to‘la amalga oshirish uchun ta’lim mazmuniga yangi pedagogik tajribalarni, texnologiyalarni olib kirish, ularni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak. Binobarin hozirda ommaviy ravishda qo‘llanib kelayotgan an’anaviy ta’lim berishning usullarining o‘z yutuq va kamchiliklari mavjud. Qo‘llanilayotgan ma’ruza, hikoya, suhbat va shunga o‘xshash usullarda ko‘pincha ofitser-o‘qituvchi beradigan fikr kursantga bir yoqlama singdiriladi. Bunday holatda ofitser-o‘qituvchi va kursant o‘rtasidagi qayta aloqa ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Agar ofitser-o‘qituvchi mahoratli va so‘zlashuv madaniyatiga ega bo‘lsa, fikrlarini aniq, sodda va tushunarli bayon etishga usta bo‘lsa – bu usul bilan ham maqsadga erishish mumkin. Albatta bunday qobiliyatga barcha pedagoglar to‘liq ega emaslar. Demak, muvaffaqiyatning asosiy garovi kursantlarning barchasini o‘rgatish-o‘rganish jarayoniga faol jalb etishdir [3].

Ta’lim jarayonini, unga mukammallik, aniqlik, tartiblilik, yo‘lga solinganlik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va optimallashtirish yo‘llarini izlash pedagogika sohasida doimo olib borilgan. Yan Amos Komenskiy o‘quv jarayonida “vaqt, predmetlar va usullar”ni shunday ustalik bilan taqsimlangan mashg‘ulotni va uning ideal ko‘rinishi (varianti)ni izlab topishga harakat qilgan. Shunda, Komenskiyning fikricha, “hamma narsa, to‘g‘ri vazminlikdagi toshlari bo‘lgan soat kabi hamda bunday turdagi avtomatni qurish kabi yoqimli va quvonchli va oxir-oqibatda, bunchalik mohirlik bilan yaratilgan instrumentda erishish mumkin bo‘lgan to‘g‘rilik bilan ilgariga qarab yuradi”. Zamonaviy pedagogikada ham ta’limning shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta’limga, ishlab chiqarish – texnologik jarayondagi kabi, ma’lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko‘zlangan ta’lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

O‘qitishga texnologik yondashish, ya’ni o‘quv jarayonini ham ishlab chiqarishdagi jarayon kabi texnologik – takrorlanuvchi xususiyatga ega qilish bo‘yicha dastlabki izlanishlar XX asrning 60-yillari boshlarida amerikalik olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, “pedagogik texnologiya” iborasi ham birinchi marta amerikalik pedagog olim Skinner tomonidan ishlatilgan. Pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ta’lim tizimida bu iborani paydo bo‘lishiga quyidagilar sabab bo‘lgan:

- didaktika prinsiplarini barcha mamlakatlarda (xususan AQSh da) tan olinmaganligi;

- uning qoidalari o'ta konstruktiv xarakterga ega bo'lmay, zamon talabidan orqada qolganligi;

- XX asrning 60-yillarida ta'lim jarayoniga texnikani, dasturlangan ta'lim mashinalarining kirib kelganligi va hakoza.

Demak, pedagogik texnologiya oqimi AQShda dunyoga kelgan bo'lib, XX asrning 70-80-yillarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi va YuNESKO tomonidan ham ma'qullandi.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasining asosini ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilgan o'quv natijalariga erishishni kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish ishlari tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan, uni aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalarning predmeti – ta'lim tizimining konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan. O'sha paytda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qituvchining an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib, test asosida mashina (kompyuter) yordamida o'qitishdan, kursantlarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozir bu iboraning ma'nosi yanada kengayib ketdi.

Hozirgi paytda pedagogik fan va amaliyotda *“pedagogik texnologiya”*, *“ta'lim texnologiyasi”*, *“o'qitish texnologiyasi”* kabi atamalardan keng foydalaniladi. Ularning umumiy o'xshashlik tomonlari bilan birga, ularni tushunish paytida alohida farqlar ham mavjud. Jumladan pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli katogoriya. Texnologiyalarning barcha boshqa tushunchalarini belgilash uchun sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin. O'qitish texnologiyasi, birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida ko'zlangan natijalariga kafolatli erishishga va muayyan ta'limtarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning

jarayonlibayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijaga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyati loyihasini bajarishning bayonidir [4].

Ta'lim texnologiyasi – pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu “texnik va inson resurslarini hamda ularni, o'z oldidagi ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda mashg'ulot o'tkazish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli”.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'lim texnologiyasi – pedagogik tizim komponentidir. Jarayonli qism esa ta'lim texnologiyasining muhim elementi hisoblanadi.

O'qitishning predmetli metodikasidan farqli ravishda texnologiya quyidagicha loyihalashtiriladi:

- muayyan sharoitlardan kelib chiqib, belgilangan natijalarga erishishga yo'naltirilgan, oldindan o'ylab qo'yilgan aniq pedagogik faoliyatga qaratiladi;
- o'zining natijaviyligi, natijalarining qayta tiklanishi, “agarda” so'zini ko'pchilik hollarda ishlatilmasligi bilan farqlanadi, agarda talantli o'qituvchi va talantli ta'lim oluvchi, o'qitish vositalari, jumladan, axborot texnologiyalari va shu kabilar yetarli miqdorda mavjud bo'lsa;
- muqobil ko'rinishlarning bo'lishi mumkin emas, uning asosiy vazifasi rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlash;
- mashg'ulotni ta'lim beruvchilar uchun metodik ishlab chiqishdan farqli ravishda ta'lim oluvchilarga va ularning shaxsiy faoliyati hisobiga o'qishda yutuqlarga erishishlarini taminlashga yo'naltirilganligi;
- texnologiyada ortiqcha hech narsa bo'lmasligi shart: o'zlashtirish yo'llarini, usullarini va vositalarini almashtirish, bu – texnologiyaning yo'qligi belgisi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ta'lim jarayonida pedagog alohida tajriba o'tkazmaydi, u oldindan aniq aytiladigan natija asosida ish tutadi; faqatgina yaxshi malum bo'lgan, sinovdan o'tgan, asoslangan va gumon uyg'otmaydigan ma'lumotlarga suyanadi.

Demak, hozirgi zamon o'qitishdagi ilg'or usullardan biri ta'limning interfaol metodlar bo'lib, ular ta'lim jarayonini faollashtirish, o'qishga nisbatan burch mas'uliyatni oshirish, ofitser-o'qituvchi va kursantlardan tashabbuskorlik, mustaqil bilim olish havasi va ijodkorlikni o'stirish, mashg'ulot jarayonini jonli-jozibali va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'qitishning interfaol metodlarini qo'llash harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya ishlariga jo'shqinlik va g'ayrat kiritadi. Mahoratli, ijodkor ofitser-o'qituvchilar harbiy ta'lim muassasalarda ta'limning

interfaol metodlaridan foydalanib, ta'limtarbiya ishlarida yuqori samaralarga erishmoqdalar. Ularning ijodiy izlanishlari, sa'y-harakatlari tufayli hozirgi zamon o'qitish amaliyotida zamonaviy mashg'ulot nazariyasi, metodik asoslari, texnologiyasi yaratilib, ulardan ta'lim muassasalarida foydalanilmoqda.

Demak, o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri interfaol mashg'ulotlar bo'lib, bugungi kunda harbiy ta'lim muassasalaridagi ilg'or ofitser-o'qituvchilarimiz ulardan keng ko'lamda foydalanish bilan bir qatorda uning yangidan-yangi turlarini izlab topmoqdalar hamda ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etmoqdalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kursantlarni o'qitish, tarbiyalash – mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunda ofitser-o'qituvchining eng mashaqqatli ishlaridan biri shuki, u har bir kursantning shaxsiy (individl) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarda barcha kursantlarning faolligiga erishishdan iborat. Bu o'rinda kursantlarning faolligi o'z-o'zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Ofitser-o'qituvchi kursantlarda o'qishga bo'lgan qiziqishini ongli ravishda oshirishga harakat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni.
2. Azizxo'jaeva, N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.
3. Ishmuxamedov, R.J., Rayimov, Sh.K. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma: - T.: TOUQBYu, 2013. - 54 b.
4. Ishmuhammedov, R.J., Yuldashev, M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). - T.: 2017. - 372 b.